


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat magistratura
mutaxassisligining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil “01” 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. Umumiy tavsifi

70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat magistratura mutaxassisligi – Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy tadqiqot markazlari, loyihalash institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish; O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonolari, xalqaro tashkilotlar va integratsion birlashmalar, tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi davlat tashkilotlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari bilan shug'ullanadigan davlat tashkilotlari, viloyat, tuman va shahar hokimiyatlari, mahalliy korxonalar va tashkilotlar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat magistratura mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar -O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, uning Qoraqalpog'iyaton Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi tashkilotlari, respublika va mahalliy boshqaruv organlari, viloyat, tuman iqtisodiyot va moliya bo'linmalari, ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik,

ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari, O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integrasion birlashmalardagi vakillari, xorijiy mamlakatlardagi O‘zbekiston elchixonalarining iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullanadigan tuzilmalari, “O‘zbekinvest” eksport – import milliy sug‘urta kompaniyasi, “O‘zagroeksport” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zsanoateksport” aksiyadorlik jamiyati, “O‘ztreyd” aksiyadorlik jamiyati, “O‘rta Osiyo Trans” xalqaro avtotransportda yuk tashish davlat – aksiyadorlik kompaniyasi, Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi, “Xalqaro hamkorlik markazi” aksiyadorlik jamiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat, yani eksport yoki import faoliyati bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari (xususiy korxonalar); xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo‘shma korxonalar, korxonalar va tashkilotlardagi tashqi iqtisodiy faoliyat tuzilmalari va xizmatlarida ishlash huquqiga ega bo‘ladilar. Shuningdek mazkur mutaxassislik bo‘yicha bitiruvchilar oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ham ega bo‘ladilar.

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

real sektor korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati va rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi;

davlat va shaxs hamda xo‘jalik faoliyati sub‘ektlarining iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organlarida boshqaruv jarayonlari;

iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

tarmoqlar va sohalar iqtisodiyoti sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

xalqaro tashkilotlarda, elchixonalarda, investitsiyalar, savdo tashkilotlarida iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni, mikro va makro iqtisodiy makonda iqtisodiy ko‘rsatkichlarining tahlili jarayonlari;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarining rivojlanish jarayonlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *pedagogik;*
- *moliyaviy-iqtisodiy;*
- *hisob, tahlil va nazorat;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;*
- *konsalting xizmati;*
- *axborot-tahliliy faoliyat*

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob’ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;

jahon iqtisodiyoti masalalarini hal etish uchun yangi dasturlar paketlarini qo'llashi;

o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlar tadqiqot qilishi va ishlab chiqishi;

namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalarini tahlil qilishi;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzishi;

ilmiy seminarlar ilmiy jarayonlarda ishtirok etishi;

ilmiy mavzularga mos keluvchi jurnallarga maqolalar tayyorlash qobiliyatlariga ega bo'lishi;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirishi va topishi;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etishi;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqishi;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritishi;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirishi;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borishi.

uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining tahlilini sharhini ishlab chiqish;

mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatlariga ega bo'lishi;

tashqi iqtisodiy faoliyatga oid masalalarni muhokama qilishda namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish malakalariga ega bo'lishi;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan korxonalar va tashkilotlarda yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarning tatbiq qilinishini tashkil qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil etish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish nazariyasini bilish va uni amaliyotga joriy etish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishni tahlil qilish va baholash usullarini bilish va amaliyotga tatbiq qilish;

O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy munosabatlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish buyicha tavsiyalar ishlab chiqish;

mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanish tajribasini o'rganish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatlariga ega bo'lish;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilishi lozim.

Konsalting xizmati faoliyatida:

Iqtisodiy, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

axborotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;

iqtisodiy o'zgarishlarning ta'sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, oqibatlarini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

tashqi iqtisodiy masalalar yuzasidan ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari nuqtai nazarini o'rganish borasida tahliliy ishlar olib borish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Umumiy kompetensiyalar:

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatidan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompiyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Kasbiy kompetensiyalar:

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega blish;

tashqi savdoni boshqarish, eksport va import operatsiyalarini muvofiqlashtirish, xalqaro kompaniyalar va franshizalar bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish, milliy tovarlar uchun xalqaro bozorlarni izlash hamda xalqaro standartlar asosida eksport nomenklaturasini shakllantirishni bilish;

tashqi savdodagi asosiy muammolarni aniqlash va kompaniyalarning jahon tovar va moliya bozorlarida raqobatbardoshligini asoslash, samarali qarorlar qabul qilish uchun biznes muzokaralarini olib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

xalqaro moliyaviy tashkilotlar va kompaniyalarning investitsion loyihalarni baholash, ularni jalb etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish, investitsion loyihalarni boshqarish va milliy iqtisodiyotga muvofiqlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lish;

amaldagi tashqi savdo siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish, tarif va notarif usullarni tahlil qilish, xalqaro bojxona standartlari asosida tovarlar va xizmatlar eksport-import operatsiyalarini optimal amalga oshirish yuzasidan xulosalar berish;

jahon transport koridorlari tizimini mukammal bilish, logistik imkoniyatlarini baholash hamda milliy tovarlar va xizmatlarni xalqaro bozorlardagi harakatlarini nazorat qilishni bilish;

xalqaro savdoni amalga oshirish huquqlarini va majburiyatlarini belgilashda tender va tanlov komissiyalarini faoliyatiga xulosa va takliflar berish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyat natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

davlat, nodavlat, notijorat va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilinadigan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo'llay bilish;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

xalqaro loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

tarmoqlar va sohalarni tashqi savdo aloqalari bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish, iqtisodiy sohada yechimini kutayotgan muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	INTTLTP1105	Xalqaro savdo huquqi va savdo amaliyoti	150	5	1
1.04	BUSANA1105	Biznes analitika	150	5	1
1.05	FORIN1205	Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqarish	150	5	2
1.06	INTBC 205	Xalqaro biznes shartnomalari	150	5	2
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2,3
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2,3
	Kvalifikatsiya	Xalqaro iqtisodchi (pedagog-tadqiqotchi)			
		Jami	1800	60	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	1200	40	1,2,3,4
		Jami	1800	60	
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishining investitsion va innovatsion strategiyasi, xalqaro moliya bozori, xalqaro moliya institutlari, tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishining moliyaviy-kredit mexanizmi, bojxona xizmatlari, logistika, marketing, marketing strategiyalari, xalqaro bitimlar, xalqaro kelishuvlar, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti



Rektor  **T. Teshabayev**

2024 yil "14" 06

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**



Direktor  **M. Boltabayev**

2024 yil "25" 06

M.O.

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti**



Rektor  **S. Safoyev**

2024 yil "27" 06

M.O.

**O'zbekiston Respublikasi
Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi
Tashqi savdo departamenti Marketing
boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i  **A. Axmadjanov**

2024 yil "19" 06

M.O.

**Toshkent davlat sharqshunoslik universi-
teti**




Rektor  **G. Rixsiyeva**

2024 yil "20" 06

M.O.

**O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot assambleyasi**



Rais  **M. Umarov**

202_ yil " " "

M.O.